O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

2021 - yil 22 - sentabr 208-8-115-Q/21 Muzrabot tuman hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 20 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olish to‘g‘risida”gi 18-son Qarori, “Ko‘chmas mulk ob’ektlariga kadastr yig‘ma jildini tayyorlash” Qoidalari (ro‘yxat raqami 2725, 03.11.2015 y.), O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Muzrabot tuman filiali (Sh.Murodov) mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi”ga muvofiq ish yuritilishini ta’minlasin.

4. Matbuot xizmati J.Abdurasulov mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish hokim o‘rinbosari B.Xotamov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **E. J. Alimov**